

PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL LINGUISTICS TRANSLATION STUDIES AND INTEGRATION OF LANGUAGE TEACHING PROCESSES



Section 1: Cognitology and cultural linguistics in modern linguistics.

Section 2: Literary criticism and society.

Section 3: Problems of comparative typology and translation studies, modern problems of philology.

Section 4: Integration of communicative technologies in language learning.



Deep Learning
May 22, 2024
Network capable of
adapting itself to new
data



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Ingliz tilshunosligi kafedrası

**PRAGMALINGVISTIKA, FUNKSIONAL TARJIMASHUNOSLIK VA TIL
O‘RGATISH JARAYONLARI INTEGRATSIYASI**

**mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari
TO‘PLAMI**

2024 yil, 22-may

Buxoro 2024

Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari: to'plovchi va nashrga tayyorlovchi: M.U.Saidova, M.A.Shukurova, N.J.Bobojonova, X.X.Qodirova; Buxoro; 2024 yil, 487 bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-nazariy anjuman O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli "2024-yilda qo'shimcha o'tkaziladigan xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to'g'risida"gi buyrug'iga asosan o'tkazilmoqda. To'plamda respublikamiz olimlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va mustaqil izlanuvchilarining xorijiy tillarda o'quv va badiiy adabiyotlar, elektron darsliklar, ixtisoslashtirilgan rasmlar bilan bezatilgan gazetalar va jurnallarni yaratish hamda chop etish samaradorligini oshirish, yoshlarda chet tilni egallash darajalarining Yevropa tizimi (CEFR)ni o'rganishning o'rni, yoshlarga chet tilni o'rgatishning psixologik aspektlari, chet tilni o'rganishda til xususiyatlarining ahamiyati va muammolari, til va madaniyatlararo kommunikatsiya metodlari, tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari, uslubshunos olimlarning ilg'or tajribalarining roli kabi masalalar talqiniga bag'ishlangan maqolalari o'z ifodasini topgan. To'plamda til muammolari bilan qiziquvchi ilmiy xodimlar, katta ilmiy-xodim izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchilar, magistrantlar va o'quvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir hay'ati:

Prof. O.X.Xamidov, prof. T.H.Rasulov, prof. M.Q.Baqoyeva, prof. D.S.O'rayeva, dots. N.B.Ataboyev, prof. Z.I.Rasulov (mas'ul muharrir), M.A.Shukurova (mas'ul kotiba)

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchilari: M.U.Saidova, M.A.Shukurova, N.J.Bobojonova, X.X.Qodirova

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari nomzodi, professor M.H.Alimova
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent N.B.Bakayev
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Z.B.Toshev

14. Rasulov , Z. (2023). Принцип когнитивной экономии как важный фактор в передаче информации. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 42(42). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10954
15. Rasulov, Z. (2023). ПРИНЦИПЫ ЭКОНОМИИ ФОНАЦИОННОЙ ЭНЕРГИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).
16. Rasulov , Z. (2023). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYADA MANIPULYATSIYA TUSHUNCHASI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 39(39). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10487
17. Erkinovna, Y. F. (2021). Politeness and Culture. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES, 2, 82–86.
18. Erkinovna, Y. F. (2022). The Principle of Politeness in the English and Uzbek Languages. Eurasian Research Bulletin, 6, 65-70.
19. Yuldasheva, F. (2023). ИССЛЕДОВАНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. Farg ‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali, (1), 480-483.
20. Erkinovna, Y. F. (2021). Politeness and culture. In International conference on multidisciplinary research and innovative technologies (Vol. 2, pp. 82-86).
21. Yuldasheva, F. (2021). Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalik . ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 5(5). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2584
22. Erkinovna, Y. F. . (2023). Four Current Approaches to Politeness. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(6), 250–255. Retrieved from <http://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/321>
23. Erkinovna , Y. F. . (2023). Grice’s Conversational Maxims in Our Everyday Life. Miasto Przyszłości, 32, 151–154. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1118>
24. Erkinovna, Y. F. . (2023). Expression of the Modesty Maxim in English. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(6), 333–336. Retrieved from <http://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/338>
25. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2023). Cross-Cultural Variation and Distribution of Politeness Strategies . American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 31–34. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/864>

ARTUR AFSONASIDAGI ATOQLI OTLAR INGLIZ MILLIY MADANIYATINING IFODASI SIFATIDA

*N.Djumaeva, BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedراس dotsenti,
M.Murodova, BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedراس magistranti*

Abstract: *this article reveals the expression of English culture and values in the famous names of the Arthurian legends, which are considered the English national legend.*

Key words: *onomastics, toponyms, culture, lingvoculturology, onomastic dictionary, popular nouns.*

Kalit so‘zlar: *onomastika, toponimlar, madaniyat, lingvokulturologiya, onomastik lug‘at, atoqli otlar.*

Annotatsiya: *ushbu maqolada ingliz milliy afsonasi hisoblangan Artur afsonalaridagi atoqli otlarda ingliz madaniyati va qadriyatining ifodalanishi ochib berilgan.*

Ключевые слова: *ономастика, топонимы, культура, лингвокультура, ономастический словарь, народные имена.*

Аннотация: *данная статья раскрывает выражение английской культуры и ценностей в знаменитых названиях легенд о короле Артуре, которые считаются английской национальной легендой.*

Tildagi atoqli otlar leksik tarkibining ba'zi lingvistik birliklari jamiyatning madaniy ma'lumotlarining tashuvchisi bo'lganligi sababli, lingvistik va madaniy dunyo tasviri mazmunining

ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Tilning ajralmas qismi bo'lgan bu til birliklari lingvistik-madaniy xususiyatga ega bo'lib, dunyoni anglash, mentalitetni rivojlantirish, madaniy qadriyatlar bilan tanishishda muhim rol o'ynaydi.

Bizning fikrimizcha, ma'lum atoqli nomlar ham madaniy komponentga ega, obyekt, shaxs, hodisa va hokazolarni nomlashda ular nafaqat aloqa paytida uzatiladigan tegishli ma'lumotlarni yetkazishadi, balki madaniy mazmunni o'z ichiga oladi va olib boradi. Biz o'ziga xos ma'no va mazmunga ega bo'lmagan kundalik to'g'ri nomlarni nazarda tutmaymiz: Anvar, Gulasal, Petrov, Anna, balki jamiyat taraqqiyoti jarayonida madaniyat aks etgan ma'nolarga ega bo'lgan til birliklari: Navro'z, Cherrill, Rajab, Garvard, Mona Liza va boshqalar. Aynan mana shu xos nomlar bizning tadqiqotimiz uchun qiziqish uyg'otadi, chunki ularning ba'zilari til madaniyatining butun qatlamini tashkil qiladi, ularsiz madaniyatlararo muloqotni to'g'ri amalga oshirish mumkin emas. Bizning fikrimizcha, ingliz tilini o'rganayotgan yoki uni tadqiq etayotgan shaxs dunyoning lingvistik va madaniy manzarasining bir qismi bo'lgan shu jamiyatning madaniyati, tarixini aks ettiruvchi ma'lum bir zaxirani, tegishli nomlar to'plamini bilishi va ega bo'lishi kerak.

Shuning uchun biz ushbu maqolada Artur va dumaloq stol ritsarlari asarida ishlatilgan atoqli otlarni britan til va madaniyatiga chambarchas bog'liq jihatlarini tahlil qildik.

"It is your own default, sir," said the lady, "for ye have done a passing foul deed in slaying that fair damsel yesterday--and ever shall it be great shame to you. But ye be not of King Arthur's kin."

Shubhasiz, ushbu asarda eng ko'p ishlatilgan ism "Arthur" ismi bo'lib, bu ismning kelib chiqishi va ma'nosi bo'yicha bir qancha tillarda turlicha izoh berilgan. Avvalo bu ism kelt tilidagi "artos" ya'ni sher ma'nosini va ayrim manbalarda "thor" so'zidan olingan bo'lib burgut yoki jasur kabi ma'nolarni anglatishi haqida ma'lumot berishgan. Bundan tashqari bu ism Rim manbalarida "Artorius" (Rim xalqining eng mashhur generallaridan biri hisoblangan "Lucius Artorius Castus") ya'ni buyuk va qo'rqmas ma'nolarni beruvchi ismdan ingliz madaniyatiga kirib kelganini ta'kidlaydilar. Uels xalqlari uchun bu ism "arth" ayiq va "gwr" erkak ma'nolarni bildiruvchi so'zlar jamlanmasi sifatida qaraladi. Bu ism asosan asosan O'rta asrlarda keng tarqala boshlanadi va albatta bunda Artur haqidagi afsonalarning keng omma orasida mashhur bo'lishi asos qilib ko'rsatiladi.

Afsonada qo'llanilgan ismning tarixiga qaraydigan bo'lsak, ingliz tilida aslida hech qanday tarjimaga ega bo'lmagan bu so'z aynan bosh qahramonga berilishi britan xalqi tarixiga taalluqli bo'lgan barcha elatlarda ya'ni uels, kelt, rim xalqlarida mardlik, buyuklik, jasorat ma'nolarini berganligi sababli (garchi talaffuzi, yozilishi farq qilsada) ingliz tiliga moslanib tanlangan.

Aurelius and Uther are even now upon thee to revenge their father's murder; and the brood of the white dragon shall waste thy country, and shall lick thy blood.

"Uther" ismi Britaniya xalqiga uelslar tomonidan kiritilgan bo'lib, uels tilida dastlab uthyr – havas qilsa arziydigan, yoqimli ma'nolarini anglatgan bo'lsa keyinchalik badjahl, dahshatli kabi ma'nolarni anglatishni boshlagan. Ham salbiy ham unga qarama qarshi bo'lmagan ijobiy ma'noni anglatgan so'z ingliz madaniyati va qarashi jihatdan podshohda jamlanishi kerak bo'lgan muhim insoniy fazilatlarni bildirgani uchun bu ism afsonada qo'llanilgan va haligacha ham o'g'il ham qiz bolalarga qo'yiladi.

As they talked came one with the king's horses, and so, King Arthur mounting one, and Merlin another, they rode together to Caerleon; and Merlin prophesied to Arthur of his death, and also foretold his own end.

Merlin so'zi turli tillarda turlicha talqin etiladi, eski fransuz tilida merilun (esmerillon so'zining qisqa formasi) lochin qushi ismi sifatida, uelsda ism sifatida dengiz qal'asi ma'nolarini beradi. Ingliz tiliga uning asosan dengizdagi qal'a, qo'rg'on ma'nolari keng qabul qilingan bo'lib afsonada u xavfdan ogoh etuvchi, qo'rg'on vazifasini bajaruvchi shaxs sifatida shakllantirish uchun ushbu ism berilgan.

And there had King Arthur the first sight of Guinevere, daughter of Leodegrance, whom in the end he married, as shall be told hereafter.

Guinevere ismi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, bu ot tarixi yana uels xalqiga borib taqaladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak bu so'z asli "gwenhwyfar" uels qiz bola ismining normand-fransuz versiyasi bo'lib "sof, samimiy, muloyim" ma'nolarini beradi. Asarda bu ism britan xalqining qirolicha sifatida shakllantirish uchun eng asosiy fazilatlarni o'zida jamlagan so'z sifatida tanlangan.

Leodegrance ismi to'liq fransuz tilidan o'zlashtirilgan bo'lib ingliz madaniyatiga normandlar bosqinidan keyin kirib kelgan bir qator keng tarqalgan ismlardan biri hisoblanadi. Angliya tarixi va mintalitetining ajralmas qismiga aylanib ketgan fransuzcha so'z va birikmalardan biri bo'lgan bu ism fransuzchada sher, arslon ma'nolarini anglatadi.

Yuqorida keltirilgan fikr va misollardan shuni aytishimiz mumkinki, ismlar va nomlar boshqa leksik til birliklari kabi madaniyatlararo muloqotda muhim o'rin tutadi. Aniq til va madaniy xususiyatga ega bo'lgan, o'ziga xos ismlar - onomastik lug'at nafaqat jamiyat tilini, balki uning adabiyoti, tarixi va madaniyatini o'rganish va bilishga ta'sir qiladi. Boshqa tomondan, semantik ma'nolarga ega bo'lgan ko'plab onomastik birliklar insonning lingvomadaniy savodxonligida muhim rol o'ynaydi: ular haqida bilmagan holda, madaniyatlararo muloqot va asosiy o'zaro tushunish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. E. Selected works on linguistics and cultural studies. - M., 1993. -- p. 259-265)
2. Schmidt W. Deutsche Sprachkunde. – Berlin: Volk und Wissen Volkseigener Verlag, 1972.
3. Воробьев В. В. О статусе лингвокультурологии / IX Международный Конгресс МАПРЯЛ. Русский язык, литература и культура на рубеже веков.
4. –Братислава, 1999. Батафсил маълумот учун қаранг: Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М., 1997.-С-21-25.
5. <https://usajournalshub.com/index.php/tajssei/article/download/1005/953/>
6. King Arthur and the Knights of the Round Table, Stephen Colbourn, 2008, Macmillan Heinemann ELT, ISBN 978-0- 230-03444-0
7. Xayrulloeva, N. (2021). THE CONCEPT OF NATURE IN MODERN AMERICAN LITERATURE. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4112
8. Xayrulloeva, N. (2023). АҚШ ЁЗУВЧИСИ МЕРИ ЭЛИС МАНРО АСАРЛАРИДА АНТРОПОНИМЛАР ВА ТАБИАТ ОБРАЗЛАРИНИНГ СИМВОЛИКАСИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 29(29). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8959
9. Xayrulloeva, N. (2022). ЭКО-ФИКШН ЖАНРИ ТАРАҚҚИЁТИ (АМЕРИКА АДАБИЁТИ МИСОЛИДА). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 25(25). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8401
10. qizi, K. N. N. (2021). An Image of Women in “Beach House Series” by Mary Alice Monroe. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(12), 28-33. http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4831
11. Khayrullayeva Nigorabegim Ne'matilloeyevna. (2023). CONTEMPORARY ECO-FICTION AND THE ANALYSIS OF AMERICAN WRITER MARY ALICE MONROE'S NOVELS. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers, 11(5), 1127–1133. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7960783>
12. Ibragimovna, G. M. (2024). Linguocultural Analyses of Imperative Mood in Uzbek Language. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(2), 45-49.
13. Ibragimovna, G. M. (2024). THE CONCEPT OF DESIRE ANALYSIS IN F. SCOTT FITZGERALD'S “THE GREAT GATSBY”. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 1(9), 104-107.
14. Ibragimovna, G. M. (2024). LINGUOCULTURAL FEATURES OF IMPERATIVE MOOD IN ENGLISH LANGUAGE. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 1(9), 108-111.
15. Ibragimovna, G. M. (2024). MEANS OF EXPRESSING POSSESSION IN" THE OLD MAN AND THE SEA" BY ERNEST HEMINGWAY. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 1(9), 101-103.
16. Gadoyeva, M. I., & Kabilova, N. S. (2019). ВЫРАЖЕНИЕ ЗНАЧЕНИЯ НЕОПРЕДЕЛЕННОСТИ ЧИСЛИТЕЛЬНЫМИ, НУМЕРАТИВАМИ И ПОСРЕДСТВОМ